


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

Namangan davlat universiteti

rektori

S.T. Furg'unov



« » _____ 2022-yil

«MA'QULLANDI»

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi

huzuridagi OAK raisi,

A.T. Yusupov



« » _____ 2022-yil

**CHET (INGLIZ VA NEMIS) TILI FANIDAN MALAKAVIY IMTIHON
DASTURI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022 yil « 30 » avgust 2022 sonli qarori bilan tasdiqlangan

Namangan – 2022

Чет тили фанидан малакавий имтихон топширмакчи бўлганлар хужжатларини <http://bit.ly/NamDUMalakaviyImtihon> хаволаси орқали топширишлари мумкин.

Чет (ingliz va nemis) tili fanidan malakaviy imtihon dasturi Namangan davlat universiteti kengashining 2022 yil «__» _____yildagi __ sonli majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

Tuzuvchilar:

- G.Sh.Tajibayev** - NamDU dotsenti, Ped.f.f.d., (PhD)
Q.A.Sidiqov - NamDU dotsenti, Filol.f.n.
Z.Ya.Sodikov - NamDU dotsenti, Filol.f.d., (DSc)

Taqrizchilar:

- O.O.Dadaboyev** - NamDU dotsenti, Filol.f.f.d., (PhD)
A.H.Tursunov - NamDU katta o'qituvchisi, Filol.f.f.d., (PhD)
D.M.Xoshimova - NamMTI dotsenti, Filol.f.d., (DSc)

Kelishildi

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boyicha prorektor



D.B.Dehqonov

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, erkin bozor munosabatlariga o'tilishi va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarning joriy etilishi "Lingvistik kapital"ga, ya'ni zamonaviy horijiy tillarni (ingliz, nemis va fransuz) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirdi. Mutaxassislarning raqobatbardoshligi chet tillardan kommunikativ kompetensiyaning egallanganlik darajasi bilan aniqlanadigan xalqaro talablar chet til o'rganish va o'rgatishga davlat siyosati va ijtimoiy buyurtmasi darajasida ustuvor ahamiyat qaratish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestasiya Komissiyasi rayosatining 2016 yil 28 yanvardagi "Malakaviy imtihonlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 220 / 2-son qarori va 2017 yil 31 maydagi "Malakaviy imtihonlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 239 / 6-son qaroriga muvofiq ishlab chiqildi.

Malakaviy imtihon o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish asosiy vazifalardan hisoblanadi:

Ilmiy izlanish olib borayotgan soha bo'yicha chet (ingliz va nemis) tilida mustaqil, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini egallash;

Ilmiy izlanishlar olib borishda Internet tizimidan keng foydalanishda chet (ingliz va nemis) tilining ahamiyati;

Ilmiy izlanish olib borilayotgan soha bo'yicha nutqqa oid (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) va tilga oid (fonetika, leksika, grammatika, va orfografiya) kompetensiyalarning egallanganligi.

Chet (ingliz va nemis) tilidan malakaviy imtihon quyidagicha tuzilgan.

I. 3 ta topshiriqdan iborat imtihon savollari bileti.

1 – topshiriqda berilgan chet (ingliz va nemis) tilidagi matnni ona tiliga yozma tarjima qilish;

2 – topshiriqda berilgan gazeta materialidagi matnni o‘qib og‘zaki so‘zlab berish;

3 – topshiriqda berilgan ilmiy ish mavzusi yuzasidan erkin suhbat.

II. MALAKAVIY IMTIHON JAVOBLARINI BAHOLASH TARTIBI

Birinchi topshiriq 30 ball:

A‘lo = 30 – 26

Yaxshi = 25 – 21

Qoniqarli = 20 – 17

Qoniqarsiz = 17 tadan past

Ikkinchi topshiriq 30 ball:

A‘lo = 30 – 26

Yaxshi = 25 – 21

Qoniqarli = 20 – 17

Qoniqarsiz = 17 tadan past

Uchinchi topshiriq 40 ball:

A‘lo = 40 – 35

Yaxshi = 34 – 29

Qoniqarli = 28 – 23

Qoniqarsiz = 22 tadan past

BIRINCHI TOPSHIRIQ BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI:

1. A‘lo = 30 – 26

Ijodiy fikrlay olish;

Xulosa chiqara olish va qaror qabul qilish;

Berilgan matn mazmunini to‘la tushunish;

Berilgan matndagi mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha atama va tushunchalarni to‘g‘ri tarjima qila olish;

Berilgan matnni xatolarsiz to'la adabiy til normalari talablari darajasida ona tiliga tarjima qilish;

Berilgan matndagi gapning kommunikativ tiplari tuzilishi uchun zarur fonetik va grammatik hodisalarni to'liq egallagan xolda ularni og'zaki muloqot jarayonida avtomatizim darajada, faol va o'z o'rnida qo'llay olish;

Berilgan matnni tarjima qilish jarayonida imlo va punktuasion xatolarga yo'l qo'ymaslik;

2. Yaxshi = 25 – 21

Berilgan matn mazmunini yaxshi tushuna olish;

Berilgan matndagi mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha termin va tushunchalarni o'rtacha tarjima qila olish;

Berilgan matnni xatolarsiz to'la adabiy til normalari talablari darajasida ona tiliga tarjima qilish;

Berilgan matndagi gapning kommunikativ tiplari tuzilishi uchun zarur fonetik va Grammatik hodisalarni to'liq egallagan xolda ularni og'zaki muloqot jarayonida faol va o'z o'rnida qo'llay olish;

Berilgan matnni tarjima qilish jarayonida imlo va punktuasion xatolarga deyarli yo'l qo'ymaslik.

3. Qoniqarli = 20 - 17

Berilgan matn mazmunini qisman tushuna olish;

Berilgan matndagi mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha termin va tushunchalarni qisman tarjima qila olish;

Berilgan matnni adabiy til normalari talablari darajasida ona tiliga qisman tarjima qilish;

Berilgan matndagi gapning kommunikativ tiplari tuzilishi uchun zarur fonetik va grammatik hodisalarni to'liq egallagan xolda ularni og'zaki muloqot jarayonida faol va o'z o'rnida qo'llay olish;

Berilgan matnni tarjima qilish jarayonida imlo va punktuasion xatolarga deyarli yo'l qo'ymaslik.

4. Qoniqarsiz = 16 - 1

Berilgan matn mazmunini tushuna olmaydi;

Berilgan matndagi mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha termin va tushunchalarni tarjima qila olmaydi;

Berilgan matnni adabiy til normalari talablari darajasida ona tiliga tarjima qila olmaydi;

Berilgan matndagi gapning kommunikativ tiplari tuzilishi uchun zarur Fonetik, leksik va grammatik hodisalarni mukammal egallamagan xolda ularni og'zaki muloqot jarayonida qo'llay olmaydi;

Berilgan matnni tarjima qilish jarayonida imlo va punktuasion xatolarga yo'l qo'yadi.

IKKINCHI TOPTSHIRIQ BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI:

1. A'lo = 30 – 26

Ijodiy fikrlay oladi;

Xulosa chiqara olish va qaror qabul qilish;

tanish va notanish mavzulardagi matnlarning asosiy/ayrim jihatlarini tushuna oladi; o'z sohalari va qiziqishlariga mos yozishmalarni tushuna oladi; jadval, grafiklarning qisqa izohini tushuna oladi; murakkab nomalarni tushuna oladi;

maxsus va murakkab yozma yo'riqnoma va yo'nalishlarni tushunib amal qila oladi; kasbiy sohasiga oid kattaroq hajmdagi maqola va ma'ruzalardan tegishli ma'lumotni ajrata oladi; tezis, konferentsiya dasturlari, mundarija va shu kabi matnlarning ayrim qismlari yoki barcha qismlarini batafsil o'qish kerakligini aniqlay oladi;

Rivojlantiriladigan ko'nikmalar: Chet tilidagi materiallarning umumiy mazmunini tushunish, ayrim ma'lumotlarni olish, tafsilotlarni tushunish va yo'nalishni aniqlash uchun o'qish (belgilar, ko'rsatkichlar va hokazolar).

Gapirish - ma'lum mavzu bo'yicha yaxshi taqdimot qila oladi; o'z sohasiga oid bir qator narsalarni aniq va batafsil tasvirlay oladi; ma'lum mavzu bo'yicha og'zaki ma'ruza qila oladi; maqola, ma'ruza yoki muhokama yuzasidan aniq

umumlashgan xulosa qila oladi; tanish mavzuga oid qarash yoki fikrni rivojlantirish, dalillar, misollar keltirish orqali asoslay oladi.

Leksik kompetensia bo'yicha - maxsus leksika va atamalarni kontekstda qo'llay oladi, kommunikativ doiralarda mavzuga oid leksikani ishlata oladi, keng ko'lamdagi baynalmilal so'zlarni farqlay oladi va ulardan foydalana oladi;

Grammatik kompetensiya bo'yicha - Kommunikativ vaziyatlarda murakkab grammatik va sintaktik strukturalarni ishlata oladi, mos bog'lovchi so'zlarni qo'llay oladi, o'z sohalariga oid diskurs modellarning grammatik, leksik va mazmun jihatdan qanday tuzilganligini tushunish maqsadida tahlil qila oladi;

Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'lgan chet (ingliz va nemis) tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini ajrata oladi va ulardan to'g'ri foydalana oladi va gapning tuzilishi va maqsadga ko'ra turlari haqida bilm, malaka va ko'nikmalarga ega;

Chet (ingliz va nemis) tili fonetikasi (talaffuz, ohang, urg'u) haqida to'liq bilm, malaka va konikmalarga egaligi;

2. Yaxshi = 25 – 21

O'qish: kattaroq matnlarni o'qiy oladi, matnning turli qismlaridan tegishli ma'lumot yig'a oladi; munozarali matnning xulosasini aniqlay oladi; matn mazmunining asosiy g'oyasini ajrata oladi; maxsus ma'lumot olish uchun nisbatan katta hajmdagi matnlarni o'qiy oladi; maxsus ma'lumot olish, to'liq tushunish uchun qisqa gazeta maqolalarini, Internet matnlari va boshqalarni o'qiy oladi.

Gapirish: ommabop yoki ixtisoslikka oid mavzuda yaxshi tuzilgan taqdimot qila oladi; qisqa hikoya, maqola yoki muhokama mazmunini qisqacha bayon qila oladi; o'z qarashlarini tushunarli va aniq ifodalay oladi.

Grammatik kompetensiya: o'tilgan grammatik material (fe'l zamonlari, modal fe'llar, sifat va ravishlarning qiyosiy darajalari, determenativ so'zlar, predloglar va hokazo)ni kundalik va sohadagi kontekstlarda to'g'ri qo'llay oladi;

Leksik kompetensiya: kasbiy leksika va atamalarni, umumiy qisqartmalarni kengaytirish, so'z yasalishi (qo'shma so'zlar va affiksasiya), o'zlashma so'zlar

(baynalmilal soʻzlar) va oʻzakdosh soʻzlar, antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlarni biladi va qoʻllay oladi.

3. Qoniqarli = 20 – 17

Oʻqish - ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab boʻlmagan matnlarni toʻliq tushuna oladi; kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli maʼlumotlarni topa oladi va tushuna oladi; gazeta va Internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna oladi; asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish boʻyicha yozma yoʻriqnomalarni tushunib, ularga amal qila oladi; ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarni tushuna oladi.

Gapirish - ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bogʻlangan taqdimot qila oladi; tanish vaziyatlar va mavzularni soddâ tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera oladi; voqea-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bogʻlay oladi; orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarini tasvirlay oladi; ommaga eʼlon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora-tadbirlarni tasvirlay oladi; soddâ iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarni keltira oladi.

Leksik kompetensiya boyicha - kasb-hunarga oid lugʻat boyligidan faol foydalana oladi; oʻz sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh soʻzlarni taniydi va ishlata oladi; oʻz ixtisosligi doirasi va undan tashqarida soʻz tuzilishi elementlari (qoʻshma soʻzlar, prefikslar, suffikslar, soʻz oʻzagi)ni taniydi va tushuna oladi.

Grammatik kompetensiya boyicha - kommunikativ maqsadlarda zarur boʻladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini taniy oladi va ulardan toʻgʻri foydalana oladi.

4. Qoniqarsiz = 17 tadan past

Oqish - rasmiy xatlarning asosiy turlarini tushuna oladi (masalan, tasdiqlash xati kabi); ommaviy axborot vositalarida chop etilgan qisqa xabar va kichik maqolalarni tushuna oladi; tovarlar va asbob-uskunalarni ishlatish boʻyicha yoʻriqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi; faktlarga asoslangan matnlarda, masalan, broshyuralar, reklamalar, gazeta eʼlonlaridan maxsus

ma'lumotlarni topa oladi; ba'zi notanish so'zlarning ma'nosini kontekstga qarab aniqlay oladi.

Gapirish - tanish mavzuda qisqa taqdimot qila oladi; nimani yoqtirishi yoki yoqtirmasligini tushuntira oladi; tadbir yoki voqea-hodisa haqida qisqa ma'lumot bera oladi; rejalar, tadbirlar, odatlar va tajribalarni tasvirlay oladi; sodda iboralar bilan predmetlar va o'ziga tegishli narsalarni qiyoslay oladi.

Leksik kompetensiya - o'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi; mavzuga oid sodda so'zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi; ba'zi baynalmilal va o'zlashgan so'zlarni taniy oladi va ularni qo'llay oladi; so'z yasashning turli yo'llarini farqlay oladi (qo'shma so'zlar, prefikslar va suffikslar).

Grammatik kompetensiya - kommunikativ vaziyatlarda asosiy grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi; so'z birikmalari va qo'shma gaplarni "ammo", "va", "chunki" kabi sodda bog'lovchilar bilan bog'lay oladi; fe'l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda bayon qila oladi va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ifodalay oladi.

UCHINCHI TOPSHIRIQ BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI:

1. A'lo = 40 – 35

Ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid atama va tushunchalarni ishlata oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzuda chet (ingliz va nemis) tilida adabiy til normalari talablari darajasida xatolarsiz o'z fikrini ifodalay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid savollarga javob berishda leksik, grammatik, fonetik va stilistik xatolarga yo'l qo'ymaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid egallagan bilm va ko'nikmalarini ingliz tilida erkin amaliy qo'llay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzularda o'rganilayotgan til sohibi bilan fikr almasha oladi.

Gapirish: o'z fikrini deyarli qiyinchiliksiz, ravon, erkin va spontan ravishda bildira olish. Keng ko'lamlı leksik boylikka ega bo'lgan holda so'zamollik bilan muloqotdagi bo'shliqlarni to'ldira olish; o'z mutaxassislik sohalariga oid bo'lmagan mavhum va murakkab mavzulardagi keng ko'lamlı nutqlarni yetarli darajada

oydinlashti rib olish zarurati tug'ilgan holda, so'zlovchining talaffuzi noaniq yoki til shevasi notanish bo'lgan hollarda ham batafsil tushuna olish; ishga qabul qiluvchi yoki ishga kiruvchi sifatida suhbatda qatnashish jarayonida hech qanday ko'maksiz fikrini kengaytirib, ravon tarzda ifodalay olish, tegishli til vositalaridan unumli foydalana olish; mavhum, murakkab va notanish mavzulardagi munozaralarda ham qatnasha olish; o'z rasmiy nuqtai nazarini ishonch bilan ilgari surgan holda, qarshi tomonning bir qator murakkab savol va sharhlariga mos ravishda ravon va spontan tarzda javob bera olish.

Monolog nutq: turli mavzularni uyg'unlashtirgan holda to'liq tasviriy yoki hikoyaviy tarzda fikrlarni alohida jihatlarga urg'u bergan holda bayon etish va mos ravishda yakunlab, xulosa qila olish.

2. Yaxshi = 34 – 29

Gapirish:

Ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid atama va tushunchalarni yaxshi ishlata oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzuda chet (ingliz va nemis) tilida adabiy til normalari talablari darajasida xatolarsiz o'z fikrini yaxshi ifodalay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid savollarga javob berishda leksik, grammatik, fonetik va stilistik xatolarga kam yo'l qo'yaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid egallagan bilm va ko'nikmalarini ingliz tilida yaxshi amaliy qo'llay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzularda o'rganilayotgan til sohibi bilan yaxshi fikr almasha oladi.

Dialog nutq - o'z hamkorlari bilan muzokara qila oladi; ma'lum masala yuzasidan iltimos qila oladi; o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirisha oladi, zarur bo'lganda boshqara oladi; oldindan tayyorgarlik ko'rilmagan jonli muhokama va munozaralarda qatnasha oladi; o'z sohasiga oid intervyuda qatnasha oladi; rasmiy muhokama doirasida o'z fikr va mulohazalarini aniq ifodalay oladi; muhokamalarda o'z fikrlarini oydinlashtira oladi, o'zgartirib talqin eta oladi va tuzata oladi; bitimga kelishuv yoki muammo yechimini topishda rasmiylik va xushmuomalalikning maqbul darajalaridan foydalana oladi; rasmiy doiralarda (masalan, seminar va hokazolar) xos ravishda savollar beradi va javoblar bera oladi.

Monolog nutq - ma'lum mavzu bo'yicha yaxshi taqdimot qila oladi; o'z sohalariga oid bir qator narsalarni aniq va batafsil tasvirlay oladi; ma'lum mavzu bo'yicha og'zaki ma'ruza qila oladi; maqola, ma'ruza yoki muhokama yuzasidan aniq umumlashgan xulosa qila oladi; tanish mavzuga oid qarash yoki fikrni rivojlantirish, dalillar, misollar keltirish orqali asoslay oladi.

3. Qoniqarli = 28 – 23

Ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid atama va tushunchalarni qisman ishlata oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzuda chet (ingliz va nemis) tilida adabiy til normalari talablari darajasida o'z fikrini qisman ifodalay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid savollarga javob berishda leksik, grammatik, fonetik va stilistik xatolarga qisman yol qo'yaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid egallagan bilm va ko'nikmalarini ingliz tilida qisman amaliy qo'llay oladi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzularda o'rganilayotgan til sohibi bilan qisman fikr almasha oladi.

Dialog nutq - tanish kundalik va boshqa umumiy mavzularda ma'lum darajada o'zida ishonch bilan ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va tasdiqlay oladi; muammoni tushuntirib bera oladi va uni hal qilish yo'llarini taklif qila oladi; kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta oladi: tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora oladi; tanish mavzularda debatlar va muhokamalarda ishtirok eta oladi; muhokamalar jarayonida mavhum mavzular va masalalarda o'z fikrini ifoda qila oladi; muhokama yoki suhbat mobaynida o'zgalar fikrini sharhlay oladi; batafsil ko'rsatmalarga oid savollarga javob bera oladi; savollar berib, tegishli sharhlar keltirib, intervyu olib bora oladi; intervyu yoki maslahat berish mobaynida kerakli ma'lumotlarni bera oladi.

Monolog nutq - ommabop yoki ixtisoslikka oid mavzuda yaxshi tuzilgan taqdimot qila oladi; qisqa hikoya, maqola yoki muhokama mazmunini qisqacha bayon qila oladi; o'z qarashlarini tushunarli va aniq ifodalay oladi.

4. Qoniqarsiz = 22 tadan past

Gapirish

Ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid atama va tushunchalarni ishlata olmaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzuda chet (ingliz va nemis) tilida adabiy til normalari talablari darajasida xatolarsiz o'z fikrini ifodalay olmaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid savollarga javob berishda leksik, grammatik, fonetik va stilistik xatolarga ko'p yo'l qo'yaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid egallagan bilim va ko'nikmalarini ingliz tilida erkin amaliy qo'llay olmaydi; ilmiy izlanish olib borayotgan ixtisosligiga oid mavzularda o'rganilayotgan til sohibi bilan fikr almasha olmaydi.

Dialog - sayohat mobaynida yoki ish joyida vujudga kelishi mumkin bo'lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi; tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi; ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo'yicha ma'lumot oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi; keng miqyosdagi his-tuyg'ular va hissiyotlar, masalan, g'amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi; mavzu bo'yicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi; sayohat, xarid, bank va boshqa umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi; yo'riqnomalar yoki ko'rsatmalarni tushunib, ularga amal qila oladi; rasmiy suhbatda, masalan, ishga joylashish yoki stipendiya olish uchun bo'ladigan suhbatda oldindan kutsa bo'ladigan savollarga javob bera oladi; yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqti va joyini rejalashtira oladi; kasb-hunarga oid mavzudagi savollar bera oladi va ularga javob qaytara oladi

Monolog - ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bog'langan taqdimot qila oladi; tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera oladi; voqea-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bog'lay oladi; orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarni tasvirley oladi; ommaga e'lon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora-tadbirlarni tasvirley oladi; sodda iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarni keltira oladi.

1. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. – Xalq ta'limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
2. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Language Policy Unit, Strasburg. 2010. – 274 p. Internet resource: http://www.coe.intA/dg4/Linguistics/Source/CEFR_EN. Access date: 6.04.2021.
3. Boqieva G.X., Irisqulov M.T. In Touch Forever – Toshkent, 2006. - 124 b.
4. Malcolm M., Taylore-Knowles S. Destination (book 3&4), Macmillan Education UK, 2013.
5. McCarter S., Whitgy N. Reading skills. – Oxford: Macmillan Publishers, 2007. – 98 p.
6. Heringer H.Y., Interkulturelle Kommunikation. UTB GmbH June 12, 2017.
7. Moskalskaya O.I., Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. –Moskau: 2003. – 288 s.
8. Menschen 1. 2. 3. Deutsch als Fremdsprache. Hueber Verlag. 2020.
9. Saidov S. Deutsche Grammatik in Uebungen. – Taschkent: 2003.
10. Ulrich E., Kurze Grammatik der deutschen Sprache. IUDICIUM Verlag GmbH January 1, 2002